

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

1. O‘zbekiston davlat jahon tilidagi universiteti  
2. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
3. Aliqambar Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil "25" \_\_\_\_\_ 2024 -sonli buyruq (biri).

**60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti bakalavriat ta‘lim  
yo‘nalishining**

**MALAKA TALABI**

Mazkur Malaka talabi "Oliy ta‘lim va fan" davlat tashkiloti tarkibidagi "Oliy ta‘lim va fan" departamenti va mutavassitlikda kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqi (biri) bilan tasdiqlanib, kadrni tayyorlash va kadrlar tayyorlovchulari taqdiri bilan bog‘liq ishlar uchun qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqi (biri) bilan tasdiqlanib, kadrni tayyorlash va kadrlar tayyorlovchulari taqdiri bilan bog‘liq ishlar uchun qo‘llaniladi.

Toshkent-2024

**O‘ZR O‘TIV**  
**Buyruq № 218**  
**2024 yil "25" 06**

### **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

1. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
2. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.
3. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

### **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “ 25 ” 06 dagi 218 – sonli buyrug‘i bilan.

### **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
<b>1. Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1. Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi .....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari .....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatarning obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalar.....	5
<b>2. Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>6</b>
<b>3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>7</b>
<b>4. Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>7</b>
<b>Bibliografik ma’lumotlar.....</b>	<b>11</b>
<b>Kelishuv varag‘i .....</b>	<b>12</b>

### 1. Umumiy tavsifi

60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talablari 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.**

“Tillar” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, u turli davlat, nodavlat va xorijiy tashkilot, korxonalar, vakolatxona, agentliklar, tarjimonlik byurolari, muzeylar, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar, tahririyatlar va turizm obyektlarida kasbiy faoliyat – maxsus tarjima (yozma va og‘zaki tarjima, sinxron tarjima, badiiy tarjima, audiovizual tarjima, ilmiy-texnikaviy tarjima), umumiy tarjima masalalari (gidhamrohlik tarjimasi, norasmiy tarjima va boshq.), tarjima jarayoni va sifatini boshqarish (tarjima materiallariga texnik qayta ishlov berish, tarjimadan keyingi tahrir va texnik ishlar, tarjima sifati bo‘yicha konsalting xizmatlari, tarjima jarayonini boshqarish va boshq.) bilan bog‘liq masalalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.**

Davlat boshqaruvi organlari, turli davlat, nodavlat va xorijiy tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), vakolatxona, agentliklar, tarjimonlik byurolari, muzeylar, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar, tahririyatlar va turizm obyektlarida tarjimon (asosiy va ikkinchi til bo‘yicha).

60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgan taqdirda, maktabgacha, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari, davlat va nodavlat

ta’lim tashkilotlarida vakolatli davlat boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o’qitish bo’yicha pedagogik faoliyat bilan shug’ullanish huquqiga ega bo’ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *tarjimonlik faoliyati;*
- *muharrirlik faoliyati;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyat;*
- *Ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *pedagogik faoliyat (qayta tayorlashdan so’ng);*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalar.**

60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq, bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo’lishi lozim:

#### **Tarjimonlik faoliyatida:**

tarjima turlari, leksik muqobillik, tarjimada qo’llaniladigan asosiy metodlarini amalda qo’llay olish;

tarjimani tanqidiy baholay olish va tahlil qilish;

yozma, og’zaki va audiovizual tarjimaning asosiy xususiyatlarini o’zlashtirish;

tarjimada til vositalarini ongli ravishda tanlash, leksik, semantik, frazeologik uslubiy matnlarning o’ziga xosliklarini ona tili va chet tillarida inobatga olish malakasini egallash;

chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga og’zaki va yozma tarjimani amalga oshirish;

xalqaro konferensiyalarda sinxron, audiovizual, ketma-ket tarjima qila olish;

amaliyotda informatsion texnologiyalarni xalqaro va kasbiy standartlarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo’llash.

og’zaki tarjimani amalga oshirish shartlari va bo’lajak tadbir haqida axborot to’plash, tarjima sohasi predmetini tushunish, tarjimani belgilangan talablar asosida amalga oshirish;

tarjima mavzusiga oid axborotlarni o’rganish, tematik lug’at tuzish, tarjima jarayonida madaniyatlararo va tillararo kommunikatsiyani ta’minlash;

muayyan sohaga oid terminologiyani bilish, tushunish va to’g’ri qo’llash, ish boshlanishidan oldin texnik jihozlarni ko’zdan kechirish, tarjimani amalga oshirish uchun axboriy materiallarni tizimlashtirish;

asliyatni dastlabki tahlil qilish, tarjima uchun zarur bo’lgan yordamchi elektron va bosma materiallarni tayyorlash va matnlarni lokalizatsiya qilish, mashina tarjimasi yoki avtomatlashgan tarjima matnini tahrirlash, matnga ma’noviy, leksik, terminologik va stilistik-grammatik tuzatishlar kiritish, tarjima sifatini tekshirish va uning tarjima maqsadlariga mosligini aniqlash.

#### **Muharrirlik faoliyatida:**

turli uslubdagi matnlarni tarjima qilish va ushbu jarayonda adabiy til normalariga amal qilish;

badiiy asar tarjimasidan avval badiiy asar va maqsadli auditoriya haqida axborotni o‘rganish, individual mualliflik uslubini o‘rganish, asl matnning pragmatik va stilistik potensialini aniqlash, badiiy asarning dastlabki tarjimasini amalga oshirish, tarjima qilingan badiiy matnni tahrir qilish, nashriyot muharriri bilan tarjima matni ustida hamkorlikda ishlash;

asliyat bilan dastlabki tanishuv va tahlil qilish, tarjima matnini asliyat bilan solishtirish, tarjima matnida imloviy tuzatishlar qilish, ma’noviy, leksik, terminologik va stilistik-grammatik o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, terminologik baza va glossariylarni qayta ishlash va to‘ldirish, tarjima qilingan materiallarni texnik nazoratdan o‘tkazish, tarjima sifatini baholash;

asl matn turi va janrini aniqlash, tarjima mavzusiga oid o‘xshash matnlarni o‘rganish, tarjima matnini tahrir qilish, asliyatning autentikligini ta’minlashga qaratilgan talablar asosida tarjima matnini rasmiylashtirish.

xorijiy tilda materiallar tayyorlash, turli manbalardagi ma’lumotlarni saralash va tahrir qilish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

tarjima ishini tashkil qilish, tarjima materiallarining turi, janri va boshqa xususiyatlariga qarab saralash, mas’ul tarjimonlarga taqsimlash, tarjimaning o‘z vaqtida amalga oshirilishi ustidan nazorat o‘rnatish, tarjima jarayonida tarjimonlarga ko‘mak va maslahatlar berib borish;

hhbuyurtmachining talabiga binoan yozma va og‘zaki tarjima jarayonlarini tashkil qilish;

tarjima matnining tahriri jarayonlarini tashkil qilish va boshqarish;

bajarilgan tarjima ishlari natijalariga qarab zarur hujjatlarni rasmiylashtirish.

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

tarjimashunoslikning dolzarb masalalari bo‘yicha eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;

ilmiy tadqiqot natijalarini qayta ishlashning zamonaviy usullaridan foydalangan holda tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot, tarjimashunoslik va xalqaro munosabatlar sohasidagi tadqiqot materiallarini kasbiy jarayonda qo‘llash va tanqidiy tahlil qilish;

tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot, tarjimashunoslik va xalqaro munosabatlar sohasida o‘zining kasbiy darajasini oshirish, tadqiqot natijalaridan amaliyotda foydalanish va uzluksiz ta’limning keyingi bosqichiga tayyorlanish maqsadida mustaqil tadqiqotlar olib borish;

tarjimaga oid bilimlarni kengaytirish, shaxsiy so‘z boyligini boyitish, turli sohalarga oid maxsus terminologiyani o‘rganish va zarur fundamental bilimlarni shakllantirish maqsadida muntazam axborot-qidiruv ishlarini olib borish.

#### **Pedagogik faoliyatda (qayta tayorlashdan so‘ng):**

maktabgacha, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus hamda professional ta’lim tizimining ixtisosligiga mos ta’lim muassasalarida o‘rgangan asosiy va ikkinchi xorijiy tillarni o‘qitish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan’anaviy o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun o‘qitishning didaktik vositalaridan foydalanish;

nazoratning turli shakllari va turlaridan foydalangan holda ta’lim natijalari sifatini baholash;

mustaqil ta’lim va ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o‘qitilayotgan fan bo‘yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.**

ijtimoiy ahamiyatga ega hodisalar va jarayonlarni, shu jumladan, siyosiy va iqtisodiy xarakterdagi hodisalarni, dunyoqarash va falsafiy muammolarni tahlil qilish, ijtimoiy va kasbiy muammolarni hal qilishda gumanitar, ijtimoiy va iqtisodiy fanlarning asosiy qoidalari va usullarini qo‘llay olish;

O‘zbekiston tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari va qonuniyatlari, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va vatanparvarlikni rivojlantirish uchun zamonaviy dunyodagi o‘rni va rolini tahlil qila olish;

hayotning turli sohalarida huquqiy bilim asoslaridan foydalana olish;

bo‘lajak kasbining ijtimoiy ahamiyati, davlat xizmatining maqsad va ma’nosini tushunish, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun yuqori motivatsiyaga ega bo‘lish, qonunlarga va kasbiy etikaga rioya qilish;

ijtimoiy, etnik, konfessional, madaniy va boshqa farqlarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish, kasbiy muammolarni hal qilishda hamkorlikni ta’minlash uchun madaniyatlararo o‘zaro ta’sirning turli shakllarini amalga oshira olish;

o‘zbek, rus va xorijiy tillarda, shu jumladan, professional mavzularda og‘zaki va yozma nutqni mantiqiy jihatdan to‘g‘ri, asosli va aniq qurish, shaxsiy va boshqa tadqiqotchilarning asosli ilmiy natijalarini omma oldida taqdim etish, munozaralar olib borish;

o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil shakllantirish va o‘zini tarbiyalash qobiliyatiga ega bo‘lish;

tarjima nazariyasi, tarixi va metodologiyasi, tilshunoslik, tillar va madaniyatlarni qiyosiy o‘rganish va madaniyatlararo muloqot sohasidagi tizimli bilimlarni kasbiy faoliyatning turli sohalarida qo‘llay olish;

turli madaniyatlarda ishbilarmonlik, madaniy va professional muloqotning diskursiv va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini tushuna olish va chet tilidagi madaniyatlararo muloqotning turli sohalarida o‘ziga xoslikni hisobga olish qobiliyati;

muloqot jarayonida o‘rganilayotgan tillarning til va nutq normalariga muvofiq turli xil funksional yo‘nalishdagi og‘zaki va yozma matnlarni idrok etish va yaratishning kognitiv va kommunikativ ko‘nikmalarini qo‘llay olish;

tarjima haqidagi nazariy bilimlardan foydalana olish, tarjimaning ayrim turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, tarjima faoliyatining turlarida tarjima strategiyalari, usullari va tizimi haqida bilimlarga ega bo‘lish hamda qo‘llay olish;

asl nusxani to‘g‘ri idrok etishni ta’minlaydigan matnning dastlabki tahlilini qila olish; tarjimaga tayyorgarlik, shu jumladan, ma’lumotnoma – adabiyotlar va raqamli axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ma’lumot topa olish va kerakli tezaurusni yaratish, shuningdek, o‘xshash matnlar asosida lug‘at tayyorlay olish;

mavjud vaziyat va o‘rganilayotgan tillarning rivojlanish tarixi to‘g‘risidagi tizimli bilimlar asosida turli xil nutq turlarini lingvistik tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lish;

zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turli xil funksional uslubdagi matnlarni o‘zbek tilidan chet tiliga va chet tilidan o‘zbek tiliga yozma tarjima qilish ko‘nikma va malakalarini qo‘llay olish;

turli xil “CAT tools” dasturlaridan foydalangan holda badiiy tarjimani stilistik tahrirlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

o‘zbek tilidan chet tiliga va chet tilidan o‘zbek tiliga turli funksional uslub va turdagi matnlarni og‘zaki va yozma tarjima qila olish;

avvaldan tasmaga yozib olingan turli xil funksional uslublar va turdagi matnlarni o‘zbek tilidan chet tiliga va chet tilidan o‘zbek tiliga ketma-ket tarjima qilishda tarjima semantografiyasini qo‘llay olish;

xalqaro tashkilotlar va xalqaro konferensiyalarda sinxron tarjimani tashkil etish tamoyillarini bilish, o‘zbek tilidan chet tiliga va chet tilidan o‘zbek tiliga sinxron tarjima qilishning asosiy ko‘nikmalarini qo‘llay olish;

og‘zaki tarjima (turistik guruhga hamrohlik qilish, ishbilarmonlik va rasmiy delegatsiyalar muzokaralarini o‘tkazish) jarayonida tarjimon odob-axloq qoidalariga rioya eta olish;

professional tarjima vazifalarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan psixofiziologik mexanizmlar va axloqiy me‘yorlardan foydalana olish: uzoq muddatli va qisqa muddatli ishchi xotira, hissiy barqarorlik, psixologik moslashuvchanlik, til va madaniy kodni tushunish;

tarjima amaliyotida AKT dan unumli foydalana olish;

barcha turdagi ish hujjatlarini yaratish, tahrirlash, taqriz yozish va tartibga solish qobiliyatiga ega bo‘lish;

ma’lumot sifati va mazmunini baholash, madaniy kontekst va muloqot sohasiga qarab unga o‘z bahosini bera olish va tanqidiy yondasha olish.

### **3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. Malakaviy amaliyot.



**4. Fanlar kalogining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
<b>1.00</b>		<b>*Majburiy fanlar</b>			
1.01	O'EYT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	O'RT1204	O‘zbek(rus) tili	120	4	2
1.03	TAT1104	Axborot texnologiyalari	120	4	1
1.04	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	1
1.05	TILSH1104	Tilshunoslik	120	4	2
1.06	FALS1304	Falsafa	120	4	3
1.07	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
		<b>Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) bo‘yicha majburiy fanlar</b>			
1.08	HO‘AT11-208	Hozirgi o‘zbek (rus) adabiy tili	120	4	2
1.09	TMKIR1104	Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish	120	4	1
1.10	AO‘CHT11-836	Asosiy o‘rganilayotgan chet tili 1,2,3,4,5,6,7	1080	36	1-8
1.11	TARJ11-828	Tarjimashunoslik 1,2,3,4,5,6,7	840	28	1-8
1.12	ATARJ11-624	Amaliy tarjima 1,2,3,4,5,6	720	24	1-6
1.13	OTARJ16-808	Og‘zaki tarjima 1,2	240	8	6, 8
1.14	TMM1404	Tarjimada madaniyatlararo muloqot	120	4	3
1.15	ICHT13-720	Ikkinchi chet tili 1,2,3,4,5	600	20	3-8
1.16	O‘TNA15-712	O‘rganilayotgan til nazariy aspektlari 1,2,3	360	12	5-8
1.17	TO‘MA1704	Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti	120	4	4
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1140</b>	<b>38</b>	<b>3-8</b>
	Kvalifikatsiya	Tarjimon (asosiy va ikkinchi chet tili bo‘yicha)			
		<b>Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o‘zbek-ingliz, nemis, fransuz tillari)</b>			
1.08	AXT1-8 38	Asosiy xorijiy til 1,2,3,4,5,6,7	1140	38	1-8
1.09	TNA1-8 35	Tarjima nazariyasi va amaliyoti 1,2,3,4,5,6,7	1050	35	1-8
1.10	HO‘AT 2-5 20	Hozirgi o‘zbek adabiy tili 1,2,3,4	600	20	2-5
1.11	O‘A 2-5 20	O‘zbek adabiyoti 1,2,3,4	600	20	2-5
1.12	JA205	Jahon adabiyoti	150	5	2
1.13	O‘YET 404	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	4
1.14	IchT15-6 10	Ikkinchi chet tili 1,2	300	10	5-6
1.15	BT 605	Badiiy tarjima	150	5	6
1.16	XTL605	Xorijiy til leksikologiyasi	150	5	6
1.17	XTS804	Xorijiy til stilistikasi	120	4	8
1.18	TT804	Terminlar tarjimasi	120	4	8
1.19	SMT804	Sohaviy tarjima	120	4	8
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>840</b>	<b>28</b>	<b>3-8</b>
	Kvalifikatsiya	Tarjimon (o‘zbek-ingliz, o‘zbek-nemis, o‘zbek-fransuz tillari)			
		<b>Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari)</b>			
1.08	AN1304	Adabiyot nazariyasi	120	4	3
1.09	G‘TA11-728	Garb tili va adabiyoti	840	28	1-7
1.10	TO‘MA13-512	Tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti	240	8	4, 5

1.12	XShT11-874	Xorijiy sharq tili	2220	74	1-8
1.13	TARJ13-818	Tarjimashunoslik	540	18	3-6
1.14	MAM11-312	Mamlakatshunoslik	240	8	1-2
		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1320</b>	<b>42</b>	<b>3-8</b>
Kvalifikatsiya		Tarjimon (asosiy va ikkinchi chet tili bo'yicha)			
<b>Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o'zbek-rus tillari)</b>					
1.08	TMK 104	Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish	120	4	1
1.09	MAMI 204	Mamlakatshunoslik	120	4	2
1.10	RTAF 104	Rus tili amaliy fonetikasi	120	4	1
1.11	IRT 1-838	Integrallashgan rus tili 1,2,3,4,5,6,7	1140	38	1-8
1.12	TNA1-835	Tarjima nazariyasi va amaliyoti 1,2,3,4,5,6,7	1050	35	1-8
1.13	HO'AT 2-520	Hozirgi o'zbek adabiy tili	600	20	2-5
1.14	O'A 2-520	O'zbek adabiyoti 1,2	600	20	2-5
1.15	RTAG 305	Rus tili amaliy grammatikasi	150	5	3
1.16	ICH15-610	Ikkinchi chet tili 1,2,3,4	300	10	5-6
1.17	JA 505	Jahon adabiyoti	150	5	5
1.18	RTL 604	Rus tili leksikologiyasi	120	4	6
1.19	SMT 6-710	Sohaviy matnlar tarjimasi	300	10	6-7
1.20	RTS 705	Rus tili stilistikasi	150	5	7
Kvalifikatsiya		Tarjimon (o'zbek-rus tili bo'yicha)			
		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>540</b>	<b>18</b>	<b>4-8</b>
		<b>Jami</b>	<b>6300</b>	<b>210</b>	
		Malakaviy amaliyot	900	30	6,7
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			8
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

*\*Izoh: Fanlar katalogida ko'rsatilgan semestrlarga oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonidan kelib chiqib o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.*

## Bibliografik ma’lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch soʻzlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, kredit-modul tizimi, ta’lim yo’nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o’quv reja va fan dasturlari, bakalavriatning o’quv jarayoni, o’qib o’rganish natijalari, malaka talablari, ta’lim sifatini baholash va nazorat qilish, mustaqil ta’lim, tarjimonlik, tarjima turlari, tashkiliy-boshqaruv, tarjimonlik va muharrirlik, terminologiya tarjimasi, sinxron tarjima, badiiy tarjima, umumiy o’rta va o’rta maxsus hamda professional ta’lim, kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar, davlat attestatsiyasi, ilmiy tadqiqot jarayoni, uzluksiz ta’lim tizimi, pedagogik faoliyat.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**


**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Rektor  I. Tuxtasinov

202\_\_ yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_



**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Rektor  G. Rixsiyeva

202\_\_ yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_



M.O‘.

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

Rektor  Sh. Sirojiddinov

M.O‘.



**KELISHILDI:**

**O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi**

Direktor  M. Boltabayev

202\_\_ yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_

M.O‘.



**O‘zbekiston Respublikasi madaniy meros  
agentligi**

Direktor  B. Abdikarimov

202\_\_ yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_

M.O‘.



**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi**

Rais  S. Saidov

202\_\_ yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_

M.O‘.

